



O'ZBEK TILINI O'QITISHDA BADIY VA TARIXIY MANBALARDAN FOYDALANISH

A.Sultanova

Ajiniyoz nomidagi Nukus DPI O'zbek tili kafedrasi dotsenti, pf.f.d (PhD)

G.Yusupova

Ajiniyoz nomidagi Nukus DPI O'zbek tili kafedrasi dotsenti, pf.f.d (PhD)

Annotatsiya: Respublikamizda ta'lim sifatini oshirish choralari ko'rilib, o'quvchilarning davlat tilini mukammal egallashlariga doir o'quv-metodik ta'minot zamон talablari asosida yangilanmoqda, kompetensiyaviy yondashuv asosida grammatik materiallarni o'rgatishga alohida e'tibor qaratilmoqda. So'nggi yillarda an'anaviy ona tili darsliklarida grammatik mavzu birinchi o'ringa qo'yilgan bo'lsa, tilni ikkinchi til sifatida o'qitishda esa matn bilan tanishuvdan boshlash usuli ma'qullandi. Grammatik mavzular o'rnini nutqiy, ma'rifiy mavzular egallay boshladidi. Ushbu mavzular jamiyat hayotining ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy hamda ma'naviy jabhalarini qamrab olishi, ham ta'lim, ham tarbiyaviy-ma'rifiy maqsadlarga xizmat qilishiga e'tibor berildi

Kalit so'zlar: talaffuz, imlo, matn, kompetensiya, nutq, mashq, topshiriq, izchillik, mantiq, ta'lim.

Аннотация: В нашей республике принимаются меры по повышению качества образования, учебно-методическое обеспечение совершенного владения учащимися государственным языком обновляется с учетом современных требований, особое внимание уделяется преподаванию грамматического материала на основе компетентностного подхода. В последние годы в традиционных учебниках родного языка приоритет отдается грамматике, а при обучении языку как второму утверждается методика начала со ознакомления с текстом. Грамматические темы стали заменяться риторическими и учебными темами. Было обращено внимание на то, что эти темы охватывают социальные, экономические, политические, культурные и духовные аспекты жизни общества, а также служат как образовательным, так и образовательным целям.

Ключевые слова: произношение, правописание, текст, компетентность, говорение, упражнение, задание, связность, логика, образование.

Annotation: In our republic, measures are being taken to improve the quality of education, educational and methodological support for students' perfect mastery of the state language is updated based on modern requirements, and special attention is paid to teaching grammatical materials based on the competence approach. In recent years, grammar has been prioritized in traditional mother tongue textbooks, while in teaching a language as a second language, the method of starting with familiarization with the text has been approved. Grammatical topics began to be replaced by rhetorical and educational topics. Attention was paid to the fact that these topics cover the social, economic, political, cultural and spiritual aspects of community life, and serve both educational and educational purposes.

Key words: pronunciation, spelling, text, competence, speaking, exercise, assignment, coherence, logic, education.



Kirish va dolzarblii.

Yosh avlodga biror o‘zga, shu jumladan, qardosh tillarni ona tili bilan mos va farqli xususiyatlarini aniqlagan holda o‘rgatishning metodik muammolarini ishlab chiqish, ikki tildagi mavjud xususiyatlarni o‘rganish, yoshlar nutqini yanada o‘stirishni ta’minlaydigan turli xil ish usullarini izlash, xorijiy olimlar qiyosiy ma’lumotlarini hisobga olgan holda grammatika elementlarini o‘zlashtirish masalalari ustuvor hisoblanadi. Shunga ko‘ra ta’lim qoraqalpoq tilida olib boriladigan maktablarda o‘zbek tili grammatik materiallarini o‘rgatishning lingvistik va metodik asoslarini aniqlashga, ular nutqini o‘stirishga, dunyoqarashini kengaytirishga qaratilgan ilmiy izlanishlarni amalga oshirish muhimdir.

Metodlar va o‘rganilish darajasi.

Maqsad va vazifalarga erishishda matn ustidagi ishlar: matnni o‘qish, mazmunini tushunish, strukturasini anglash va o‘z matnnini yaratish, boshqa shu kabi amalga oshiriladigan ishlar muhim rol o‘ynaydi. Ta’lim qoraqalpoq tilida olib boriladigan maktablarning o‘zbek tili darslarida vatanimiz tarixiga oid darsliklardan ham foydalanish mumkin. Bu esa o‘quvchilarni xalqimiz tarixi bilan yana bir bor tanishtiribgina qolmay, nutqini o‘stirishga ham yordam beradi. Masalan, son va olmoshlarning ma’noviy guruuhlarini kuzatishda matn ustida ishslash.

Tadqiqot natijalari.

Respublikamizda ta’lim sifatini oshirish choralar ko‘rilib, o‘quvchilarning davlat tilini mukammal egallashlariga doir o‘quv-metodik ta’minot zamon talablari asosida yangilanmoqda, kompetensiyaviy yondashuv asosida grammatik materiallarni o‘rgatishga alohida e’tibor qaratilmoqda. So‘nggi yillarda an’anaviy ona tili darsliklarida grammatik mavzu birinchi o‘ringa qo‘yilgan bo‘lsa, tilni ikkinchi til sifatida o‘qitishda esa matn bilan tanishuvdan boshlash usuli ma’qullandi. Grammatik mavzular o‘rnini nutqiy, ma’rifiy mavzular egallyay boshladi. Ushbu mavzular jamiyat hayotining ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy hamda ma’naviy jabhalarini qamrab olishi, ham ta’lim, ham tarbiyaviy-ma’rifiy maqsadlarga xizmat qilishiga e’tibor berildi. O‘zbek tili bo‘yicha yaratilgan ba’zi darsliklarda bu shakl mavjud, lekin matn ko‘pincha faqat o‘qish va tarjima uchun beriladi, topshiriqlar ham shu bilan cheklanadi. Grammatik mavzu esa keng izohlanadi. O‘quvchi xohlagan ikkinchi tilni o‘rganar ekan, albatta avvalo uning grammatikasi bilan tanishishga harakat qiladi, chunki bu tilda gap tuzish, fikr ifodalash uchun, avvalo, uning imlosini, sintaktik qolipini o‘rganish talab etiladi. Shu boisdan, o‘ylaymizki, umumta’lim maktablarining O‘zbek tili darsliklariga



o‘quvchilarning har tomonlama savodxonligini oshirishga yordam beradigan grammatik qoidalarni ixcham va tushunarli tarzda boy manbalardan olingan misollar bilan berib borish lozim. O‘zbek tilini o‘rganish jarayoni, bir tomondan, o‘quvchilarning tilga doir bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirishga, ikkinchi tomondan, ularni nutq amaliyotida qo‘llashga yo‘naltirilgan. O‘zbekiston Respublikasi 1- Prezidenti I.A.Karimov «Eski qolipda mustabid davrda yozilgan darsliklardan foydalanib, eski mafkuradan xalos bo‘lomasdan, bolalarimizni onglilikka, fikrlashga o‘rgatolmaymiz» [1:349]. Mana shu maqsad va vazifalarga erishishda matn ustidagi ishlar: matnni o‘qish, mazmunini tushunish, strukturasini anglash va o‘z matnnini yaratish, boshqa shu kabi amalga oshiriladigan ishlar muhim rol o‘ynaydi. Ta’lim qoraqalpoq tilida olib boriladigan maktablarning o‘zbek tili darslarida vatanimiz tarixiga oid darsliklardan ham foydalanish mumkin. Bu esa o‘quvchilarni xalqimiz tarixi bilan yana bir bor tanishtiribgina qolmay, nutqini o‘stirishga ham yordam beradi. Masalan, son va olmoshlarning ma’noviy guruuhlarini kuzatish uchun quyidagi matn taqdim etiladi:

Topshiriq. Matnni o‘qib, mazmunini so‘zlab bering. Matnda uchragan yozilishi qiyin so‘zlarni ajratib oling va mana shu so‘zlar asosida lug‘at tuzing.

Qoraqalpog‘iston xalqi qariyb yetmish yildan beri O‘zbekiston xalqi bilan ijtimoiy-siyosiy hayotning barcha sohalarida bir-biri bilan og‘alarcha yelkadosh bo‘lib yashab kelmoqdalar. Sobiq ittifoq parchalngandan so‘ng u mustaqil O‘zbekiston tarkibidagi suveren Qoraqalpog‘iston Respublikasi maqomini oldi. Bu tabiiy hodisa edi, chunki asrlar mobaynida qoraqalpoq va o‘zbek xalqi o‘rtasida do‘slik, qardoshlik munosabatlari qaror topgan. Orol bo‘yi kengliklarida qasdimdan o‘zbek va qoraqalpoq ajdodlari birgalikda yashab mehnat qilishdi. Ular bir-necha o‘n yilliklar mobaynida to‘planib qolgan muammolarni hal etishda, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni yanada chuqurlashtirishda o‘z an‘analaridan unumli foydalanish yo‘lini tanladilar. Har ikki xalq taqdiri, istiqboli bir ekanligini, ularni mushtarak orzular, yagona intilish birlashtirib turganligini ochiq-oydin ko‘rsatdilar.

1990-yil 14-dekabrda Qoraqalpog‘iston Respublikasida «O‘zbekiston Respublikasi Qoraqalpog‘iston Respublikasi Davlat suvereniteti to‘g‘risida»gi Deklaratsiya qabul qilindi. [1:56-57].

O‘quvchilar matnni o‘qiydilar, o‘qituvchidan o‘zлari tushunmagan so‘zlarni so‘raydilar, mazmunini o‘z so‘zлari bilan qayta hikoya qiladilar. So‘ngra matndan yozilishi qiyin so‘zlarni ajratib, bular asosida lug‘at tuzishga harakat qiladilar, ya’ni mana shu so‘zlarni o‘z ona tiliga tarjima qilish vazifasi topshiriladi. Bu



topshiriqni uch guruhgaga ajralgan holda ham ishlash mumkin. Shuningdek, O'zbek va qoraqalpoq tillaridagi nutqiy kompetensiyaning asosiy poydevori sanaluvchi grammatik shakllar va vositalar qoraqalpoq tilida so'zlovchi o'quvchilarning real ehtiyoj va imkoniyatlarini aniqlash va hisobga olish maqsadida o'zaro qiyoslab chiqilib, to'rt guruhgaga ajratildi: 1) ikkala tilda bir xil aytilib, bir xil yoziladigan qo'shimchalar; 2) aytilishi va yozilishida farq kuzatiladigan qo'shimchalar hamda ular bilan bog'liq orfogrammalar; 3) ikkala tilda sinonim qo'shimchalarning qo'llanishidagi farqlar; 4) o'zbek tiliga xos qo'shimchalar kabi. O'zbek tilini o'rganish ishini vaqtiga vaqtiga bilan matn vositasida davom ettirish, bu ishlarni quyidagi yo'naliishlarda tashkil etish foydalidir:

- 1) darsda o'rganilgan til materialini mustahkamlashda;
- 2) ilgari o'rganilgan til materialini takrorlash, shu jumladan talaffuz va imlo, punktuatsiya ustida ishlash maqsadida;
- 3) qoraqalpoq tilida so'zlovchi o'quvchilar ehtiyoj sezgan til materialini o'rganishda;
- 4) matn sintaksisini o'rganish jarayonida;
- 5) o'zbek adabiy tilini shevaga xos shakllar bilan taqqoslab o'rganishda;
- 6) og'zaki nutqni kitobiy nutq bilan chog'ishtirib rivojlantirishda;
- 7) badiiy asarlardan olingan parchalar asosida o'zbek tilidagi so'z ishlatish mahorati va ritorika ustida ishlashda;
- 8) o'zbek tili darslarida adabiy materiallarni o'rganishda;
- 9) tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishda.

Shunday qilib, darsdan darsga darslikda berilgan yoki o'qituvchi tomonidan TQTdagi maktab o'quvchilarining real imkoniyatlari va ehtiyojlarini hisobga olib tanlangan matn bazasida o'zbek tilining til hodisalarini majmuaviy o'rganish bo'yicha maqsad sari yo'naltirilgan ishlar bajariladi. Qoraqalpoq tilida so'zlovchi o'quvchilarning o'zbekcha nutq saviyasidan kelib chiqib, og'zaki va yozma nutqni o'stirishga yordam beradigan, pedagogik texnologiyalarni ko'zda tutadigan mashq namunalarini havola qilishga erishildi. So'z shakllari va so'z birikmalarini, ba'zan gaplarni bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilish, qoraqalpoq tilidagi matbuot xabarları, kichik-kichik ilmiy, badiiy matnlarni o'zbek tilida qayta hikoya qilish ana shunday mashqlar sirasiga kiritildi. Ta'lim qardosh tillarda olib boriladigan maktablarning o'zbek tili darslarida ona tilidan o'tilishiga qarab o'quvchilarni til sathlari bilan tanishtirib borish imkoniyatlari mavjud. Bu ishda o'qituvchi tashabbus va jonbozlik ko'rsatishi kerak. U o'quvchilarni sistematik lug'at bo'limlaridan (leksikologiya, imlo, fonetika, qo'shimcha va boshqalar) voqif eta



boradi. O‘quvchilar bir yoki bir necha til sathidagi tushunchalar bilan to‘liq yoki qisman tanishib bo‘lganlaridan so‘ng shu sath(lar) bo‘yicha «Kim terminlarni to‘liq eslab ayta oladi?» musobaqasi, metodist olima Sh.Yusupova tavsiya etgan «Bu bizniki?», «Tez yurar» singari o‘yinlar [120], [121] o‘tkaziladi, turli bellashuvlar tashkil qilinadi. «Bu bizniki?» o‘yini uchun lug‘at bo‘limlarining nomi bilan atalgan guruhlар ajratiladi, o‘qituvchi u yoki bu terminni aytib turadi, ushbu termin qaysi guruhga berilgan bo‘limga tegishli bo‘lsa, shu guruh a’zolaridan biri uni atashi lozim bo‘ladi. Uchta terminni ayta olmagan guruh o‘yindan chiqadi. Nihoyat, o‘tilgancharni takrorlash bosqichida fonetik, morfologik yoki sintaktik tahlil turlari, o‘zbekchadan qoraqalpoqchaga, qorqalpoqchadan o‘zbekchaga tarjima mashqlari o‘tkaziladi. Misollarni tahlil qilish mashqi jarayonida o‘quvchilar biror o‘zbekcha terminni bilmay qolsalar, o‘qituvchi lug‘atdan foydalanish haqida ko‘rsatmalar beradi. Nutqiy kompetensiyani hosil qilishdan ko‘zlanadigan maqsad aniq: yoshlarni o‘zbek adabiy tili me’yorlariga amal qilgan holda to‘g‘ri so‘zlash va o‘z fikrlarini yozma tarzda to‘g‘ri ifodalashga o‘rgatish. Lekin lingvistik kompetensiya chegarasi hozircha belgilab berilmagan. 5–7-sinflar «O‘zbek tili» darsliklarida taqdim etilayotgan lingvistik tushunchalar til sathlaridan oz-ozdan xabardor bo‘lish talablariga javob berishi mumkin. Lekin ular me’yoriy grammatika kursi uchun yetarli emas. Til sathlaridan saylab olib berilayotgan bilimlarning bir qismi nutq o‘sirish ehtiyojlarini ko‘zda tutadi. Demakki, ulardan ayrimlari (masalan, otlarning ma’no turlari, sifatlarning ma’no turlari va b.) bunday ehtiyojlardan ortib lingvistik kompetensiya tomon yetaklasa, bu bilimlar aslida qanday bo‘lishi kerakligi ilmiy jihatdan tadqiq etilmagan va asoslanmagan. O‘z nutqini tuzatib, sozlab borish uchun o‘quvchilar doim talaffuz me’yorlariga amal qilgan holda grammatik terminlarni to‘liq o‘zlashtirgan, shuningdek talaffuzi qiyin so‘zlar o‘qituvchi tomonidan aniqlanib ular ustida ko‘proq ishlashga, bu bo‘yicha turli-tuman mashqlar yoki bahs – munozara shaklidagi topshiriqlardan foydalanishlari lozim. M.Mirmax sudovaning ushbu fikrlaridan ayon bo‘ladiki, to‘g‘ri gapirish va savodli yozish uchun qoidalarni bilish, kerakli qoidani terminlarga tayanib darslikdan yoki boshqa o‘quv qo‘llanmalaridan topa olish, terminlarni esa to‘liq o‘zlashtirish zarur. O‘zbek va qoraqalpoq tillaridagi bir-biriga yaqin so‘zlarni bildirgan, talaffuzi va imlosi o‘xhash yoki qisman farq mavjud bo‘lganlarini leksik asnoda anglatish oson bo‘lgani uchun ta’lim mazmunida aks ettirmaslik maqsadga muvofiq. Lekin ular tanish leksika sifatida mavzu nomida, nazariy ma’lumotda, mashq yoki topshiriq shartlarida ishlatilishi mumkin. Bunday terminlar ustidagi ishlar o‘quvchilarga



terminni qiyoslash orqali anglatish va bir necha marta talaffuz qildirishdan boshlanadi. Zero, o‘zga tilni o‘rganayotgan kishi biror so‘zning talaffuzini joyiga qo‘ya olishga ko‘zi yetmasa, gapirishdan o‘zini tiyib turadi.

Qoraqalpoq tilida so‘zlovchi o‘quvchilarning o‘zbekcha nutq saviyasidan kelib chiqib, og‘zaki va yozma nutqni o‘stirishga yordam beradigan, pedagogik texnologiyalarni ko‘zda tutadigan mashq namunalarini havola qilishga erishildi. So‘z shakllari va so‘z birikmalarini, ba’zan gaplarni bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilish, qoraqalpoq tilidagi matbuot xabarlari, kichik-kichik ilmiy, badiiy matnlarni matnlarni o‘zbek tilida qayta hikoya qilish ana shunday mashqlar sirasiga kiritildi. Ayrim kamchiliklarni bartaraf etishni ko‘zda tutgan holda o‘zbek tilini ma’lum darajada amaliy biladigan qoraqalpoq o‘quvchilariga grammatik vositalarni samarali o‘rgatish, ularda nutqiy kompetensiyani shakllantirish, shu maqsadda axborot texnologiyalarini qo‘llash, ta’lim jarayonini innovatsion pedagogik texnologiyalar darajasida loyihalashning takomillashgan metodikasi yaratilishi lozim. Grammatik terminlar ustida olib boriladigan ishlar jarayonida o‘qituvchida quyidagi kabi savollar tug‘ilishi tabiiy:

- 1) terminlarni nima uchun o‘rgatish kerakligi;
- 2) qaysi terminlarni nazariy planda o‘rgatish zarurligi;
- 3) qay tarzda o‘rgatish lozimligi.

Nutqiy kompetensiyani hosil qilishdan ko‘zlanadigan maqsad aniq: yoshlarni o‘zbek adabiy tili me’yorlariga amal qilgan holda to‘g‘ri so‘zlash va o‘z fikrlarini yozma tarzda to‘g‘ri ifodalashga o‘rgatish. Lekin lingvistik kompetensiya chegarasi hozircha belgilab berilmagan: til sathlarini bilishmi yoki me’yoriy grammatika kursini egallahmi? 5–7-sinflar «O‘zbek tili» darsliklarida taqdim etilayotgan lingvistik tushunchalar til sathlaridan oz-ozdan xabardor bo‘lish talablariga javob berishi mumkin. Lekin ular me’yoriy grammatika kursi uchun yetarli emas. Til sathlaridan saylab olib berilayotgan bilimlarning bir qismi nutq o‘stirish ehtiyojlarini ko‘zda tutadi. Demakki, ulardan ayrimlari (masalan, otlarning ma’no turlari, sifatlarning ma’no turlari va b.) bunday ehtiyojlardan ortib lingvistik kompetensiya tomon yetaklasa, bu bilimlar aslida qanday bo‘lishi kerakligi ilmiy jihatdan tadqiq etilmagan va asoslanmagan. Nihoyat, matn ustidagi ishlar o‘quvchilarning nutq madaniyatini shakllantirishda alohida ahamiyat kasb etadi. Xullas, TQTdagi maktablarning o‘zbek tili darslarida izchillik, uzlusizlik va uzviylik asosida o‘rganiladigan grammatik materiallar bir tizimga birlashuvchi yuqoridagi kabi mashqlar yordamida o‘quvchilar tariximiz haqida ma’lumotga ega



bo‘ladilar, vatanparvarlik tuyg‘usi shakllantiriladi, hamda nutqi va tafakkurining takomillashishi ta’minlanadi.

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Bunyodkorlik yulida. – Toshkent: O‘zbekiston, 1996. – 68 b
2. Ne’matov H.G., G‘ulomov A.Q., Ziyodova T.U. O‘quvchilar so‘z boyligini oshirish: O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma. Qayta nashr. – Toshkent: RTM, 1997. – 100 b.
3. Rafiyev A., Muhammadjonova G., Alovuddinova N. O‘zbek tili: Ta’lim rus va qardosh tillarda olib boriladigan umumta’lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. – Toshkent: “O‘qituvchi” NMIU, 2011. – 192 b.
4. Ta’lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarning 7-sinfi uchun o`zbek (davlat) tili fanidan takomillashtirilgan Davlat ta’lim standarti / Tuzuvchilar: R.Yo`ldoshev, A.Rafiyev // Til va adabiyot ta’limi. – Toshkent, 2007. - № 5. – B. 52–57.
5. Tajimuratovna, X. M., Menglibaevna, B. S., Ataxanovna, Y. G., & Zaripbaevna, S. A. (2021). Umumiyo‘ Rta Ta’lim Maktablarida O‘Quvchilar Bilimlarini Baholash Va Nazorat Qilishda Elektron Vositalaridan Foydalanish Usullari. BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMYJ JURNALI, 1(5), 16-19.
6. Usanova, Q., & Xudayarova, M. (2023). O‘ZBEK, RUS VA QORAQALPOQ TILLARIDA OTLARNING KELISHIK KATEGORIYALARINING QIYOSIY TADQIQI. Евразийский журнал математической теории и компьютерных наук, 3(6), 54-56.
7. Mengliboevna, B. S., & Atakhanovich, M. S. (2021). Phonetic-Lexical Community and Characteristics in Uzbek and Karakalpak Literature Text Lexemas. Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT, 10, 6-8.
8. Dauletbaevich, A. K. (2022). THE COMPARATIVE VIEW OF RELIGIOUS AND SECULAR THINKING IN THE SYSTEM OF IMAGES. American Journal of Interdisciplinary Research and Development, 9, 316-321.
9. Dauletbaevich, A. X., & Ismailovich, D. O. (2022). EXPRESSION OF THE PERSONALITY SPIRITUALITY IN THE CHARACTERS SPEECH. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(11), 632-637.
10. Atakhanovna, Y. G. (2020). ON THE CREATION OF EDUCATIONAL CONTENT AND THE PECULIARITY OF ITS USE FOR MISCELLANEOUS LEARNING IN THE LESSONS OF THE UZBEK LANGUAGE. ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies, 9(2), 58-65.
11. Sultanova, A. (2020). PROBLEMS OF LEARNING GRAMMATICAL TERMS IN SECONDARY SCHOOLS AND WAYS TO SOLVE THEM POSITIVELY. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal.